

**Suv xo'jaligi sohasiga oid o'zgartirish kiritilgan va o'z kuchini yo'qotgan
normativ-huquqiy hujjatlar haqida
MA'LUMOT**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-oktabrdagi 645-sonli qarorining 11-ilovasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Hukumatining quyidagi ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi:

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-martdagi 149-son qarori bilan tasdiqlangan Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasi Ijroiya qo'mitasidagi O'zbekiston Respublikasining doimiy vakili faoliyati to'g'risidagi nizomning 8-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. OQXJning Orol dengizi havzasi loyihalarini amalga oshirish agentligi va OQXJ ijroiya qo'mitasining Nukus filiali xodimlarining mehnatiga haq to'lash, ularni mukofotlash va ularga moddiy yordam ko'rsatish quyidagicha amalga oshiriladi:

a) Yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lashning tasdiqlangan razryadlariga muvofiq lavozim maoshini belgilashda 2024-yil 1-iyuldan boshlab, OQXJning Orol dengizi havzasi loyihalarini amalga oshirish agentligi xodimlari uchun — 4 baravar, OQXJ ijroiya qo'mitasining Nukus filiali xodimlari uchun — 3 baravar oshirilgan koeffitsiyentlar qo'llaniladi;

b) davlat tashkilotlarida ko'p yillik mehnati uchun rag'batlantirish koeffitsiyentini hisobga olgan holda lavozim maoshiga quyidagi hajmlarda har oyda ustama to'lanadi:

1-yildan 5 yilgacha — 0,2;

5 yildan 10 yilgacha — 0,3;

10 yildan 20 yilgacha — 0,4;

20 yildan ortiq — 0,6;

v) bayramlar munosabati bilan yiliga ikki oylik lavozim maoshi miqdorida va har chorak yakuni bilan bir oylik lavozim maoshi miqdorida mukofot pullari hamda yiliga bir oylik lavozim maoshi miqdorida moddiy yordam to'lanadi;

g) budjet tashkilotlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash fondining qonunchilikda belgilangan miqdorda moddiy rag'batlantirish maxsus fondi qo'llaniladi;

d) ilmiy darajaga ega xodimlarga 2025-yil 1-yanvardan boshlab, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda 1030-son qarori bilan tasdiqlangan Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizom talablari tatbiq etiladi.

OQXJning Orol dengizi havzasi loyihalarini amalga oshirish agentligi va OQXJ ijroiya qo'mitasining Nukus filiali xodimlarining mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq barcha xarajatlari va saqlash xarajatlari O'zbekiston Respublikasining

badali (ulushi) sifatida har yili O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan o'tkazib beriladigan mablag'lar hisobidan to'lanadi".

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-apreldagi 174-son qarori bilan tasdiqlangan Suvdan foydalanish va suv iste'molida suv resurslarining hisobi va hisobotini hamda monitoringini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomda:

a) 7-band "Suv iste'molchilari" so'zlaridan keyin "(aholi tomorqasi uchun shu hududdagi mahalla fuqarolar yig'ini)" so'zlari bilan to'ldirilsin;

b) 13-bandning birinchi xatboshisidagi "suv iste'molchilari uyushmalariga, suv iste'molchilari uyushmalari esa" so'zlari chiqarib tashlansin;

v) 14-bandning birinchi xatboshisi "suv iste'molchisi" so'zlaridan keyin "(aholi tomorqasi uchun shu hududdagi mahalla fuqarolar yig'ini)" so'zlari bilan to'ldirilsin;

g) 16-banddagi "(tomorqa yer egalaridan tashqari)" so'zlari "(aholi tomorqasi uchun shu hududdagi mahalla fuqarolar yig'ini)" so'zlari bilan almashtirilsin;

d) 20-bandning birinchi va ikkinchi xatboshilari "suv iste'molchisi" so'zlaridan keyin "(aholi tomorqasi uchun shu hududdagi mahalla fuqarolar yig'ini)" so'zlari bilan to'ldirilsin;

e) 3-ilovadagi eslatmada:

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Suv iste'molchilari (agroklaster, fermer va dehqon xo'jaliklari va boshqalar) va "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi o'rtasidagi, shuningdek, "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi va irrigatsiya tizimi (magistral kanal yoki tizim) boshqarmasi o'rtasidagi suvning kundalik hisob jurnali tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasida ro'yxatga olinadi";

uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin.

3. Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning sho'rini yuvish ishlarini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 8-apreldagi 190-son qarorida:

a) 1-bandning to'rtinchi xatboshisidagi, 2-bandning "a" kichik bandi ikkinchi va oltinchi xatboshilaridagi hamda "v" kichik bandidagi tegishli kelishikdagi "suv iste'molchilari uyushmalari" so'zlari tegishli kelishikdagi "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) ilovada:

4-banddagi "suv iste'molchilari uyushmalarining" so'zlari "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalarining" so'zlari bilan almashtirilsin;

5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"5. Suv iste'molchilarining suv olish limitlari xalq deputatlari tuman Kengashlari qarorlari bilan belgilangan tartibda tasdiqlanadi va ularga xizmat ko'rsatadigan tegishli foydalanuvchi tashkilotlar ("Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari) tomonidan suv iste'molchilariga yetkaziladi";

6, 9 va 14-bandlardagi, 15-bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilaridagi, 17-banddagi va 1-ilovadagi tegishli kelishikdagi “suv iste’molchilari uyushmalari” so‘zlari tegishli kelishikdagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

4. Vazirlar Mahkamasining “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 9-fevraldagi 79-son qarorida:

a) 1-ilovaning 11-bandi ikkinchi xatboshisidagi “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri” so‘zlari “Vazirlik huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 4-ilovaning izohi quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“ Maxsus texnikalar xarid qilish uchun ajratilgan mablag‘larning iqtisod qilingan qismi hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan qo‘shimcha maxsus texnikalar xarid qilinadi hamda ular O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirining buyrug‘iga muvofiq taqsimlanadi”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-oktabrdagi 645-sonli qarorining 12-ilovasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining quyidagi ayrim hujjatlariga o‘z kuchini yo‘qotgan deb e‘tirof etildi:

1. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatiga doir ayrim qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentabrdagi 573-son qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 19-apreldagi 195-son qaroriga 6-ilovaning 21-bandi.

3. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish, shuningdek, ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2022-yil 7-iyuldagi 372-son qaroriga 1-ilovaning 3-bandi.

4. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2022-yil 18-iyuldagi 388-son qaroriga 1-ilova 2-bandining “b” kichik bandi.

5. Vazirlar Mahkamasining “Yaratilgan yangi ish o‘rinlarini hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2022-yil 21-dekabrdagi 717-son qaroriga 2-ilovaning 23-bandi.

6. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi suv xo‘jaligi ob‘ektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy

hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2023-yil 27-sentabrdagi 500-son qaroriga 3-ilova hamda 5-ilovaning 20-bandi.

7. Vazirlar Mahkamasining "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2024-yil 9-fevraldagi 79-son qaroriga 5-ilovaning 3-bandi.

Yuridik bo'lim boshlig'i



R.Sharopov